

XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH

Saminjonova Namuna Ibroximjon qizi

Surxandaryo viloyati Uzun tumani

32-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada motivlar asosida o'quvchilarda o'quv mustaqilligining shakllanishi hamda uning rivojlantiruvchi ta'lif shartlariga bog'liqligi yoritib berilgan. Shunindek, muallif kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi xususiyatlarini, ichki yoki tashqi motivatsiyaning ustunligini aniqlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Asosiy e'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'qish darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: innovatsion taraqqiyot, xalqaro mezon, o'qish savodxonlogi, xorijiy tajribalar, ta'lif sifatini baholash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagogik kuzatuv, falsafaviy qarashlar, g'oyalar, ilovalar.

INTERNATIONAL RESEARCH PRACTICE ASSESSMENT OF PRIMARY LITERACY LITERACY STUDENTS

Abstract: Reading literacy - is the ability to comprehend and apply forms of written language that are required and valued by society. The focus is on demonstrating the ability to apply the information learned in new projects and situations, rather than demonstrating understanding. The student's heart is high in

reading lessons. It is important to educate and teach the rules of etiquette using the unique masterpieces created by our ancestors.

Keywords: innovative development, unternational criteria, reading literacy. Foreign experience, assessment of the qulity of education, professional development of teachers, pedagogical observation, philosophical views, ideas, applications.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang`ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta’lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta’lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo’shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo‘lmagan, umumiyl tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi. Motivlar asosida o‘quvchining o‘quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta’lim shartlariga bog‘liqdir: – faoliyat maqsadi. Nima qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo‘lishi kerak. – o‘quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega. Motivlar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo‘naltiradi. – faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o‘quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi. – o‘quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar. O‘quvchi murakkab topshiriqni o‘zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko‘rsatmasiga ko‘ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o‘quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni

bajarishni yo‘llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi. – barcha tashkiliy sharoitlar yaratilmasa har qanday faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyati yo‘qoladi. – o‘quvchining faoliyati rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi uchun, u doimo murakkablashtirilib borilishi kerak. Faoliyat mazmuni va vazifalari astasekinlik bilan murakkablashib boradi, vazifalarning tezligi va sifatiga talab oshadi, vazifalarni bajarishda va yechimini topishda o‘quvchilar mustaqilligiga asoslanilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun uning faoliyat natijasi pedagog tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi lozim. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi1 tashkil etilib, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bo‘yicha masalan, Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) —boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; The Programme for International Student Assessment— (PISA) 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash kabi ustuvor mezonlarda quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi2 : PISA - The Programme for International Student Assessment — 15 yoshli o‘quvchilarnin go‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan

savodxonlik darajasini baholash; TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study— 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash; PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study— boshlang‘ich 4- sind o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; TALIS - The Teaching and Learning International Survey— rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rtalim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish. Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko‘ra, masalan; o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari uchun elektron shakldagi ta’limni rivojlantirish, unda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o‘quvlar tashkil etish kabilar belgilangan. Aynan PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to‘plamida test topshiriqlari, ta’lim muassasalarini o‘quvchilari uchun so‘rovnomalar ustida amaliy mashg‘ulotlarda malaka oshirish kurs 1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori. 2 PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy tinglovchilari bilan birgalikda quyidagilarni o‘z ichiga olgan ta’lim yo‘nalishida misol tariqasida “Falsafaviy kafe” topshirig‘i asosida tadqiqot olib borish lozim3 : tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar, o‘quvmetodik qo‘llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish; pedagogik kuzatuv; pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish; tadqiqot mavzusi bo‘yicha suhbatlar tashkil etish; tadqiqot natijalarini umumlashtirish. Amaliy ishning ahamiyati: to‘plangan tajriba materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy yondashish asosida ta’lim muassasalarida dars jarayonida boshlang‘ich sind o‘quvchilarini xalqaro tadqiqotlar talabi darajasida tayyorlash va uning samaradorligini oshirish yo‘llari belgilanadi. “Falsafaviy kafe” topshirig‘i Kompyuter texnologiyalari asosida ekranda oshxona

va undagi o‘zaro suhbatlashayotgan xo‘randalar tasviri namoyishi taqdim etiladi, ma’lumotlarni aynan tasvirli rasmlar va u yerda berilgan matnli ilovalar, ko‘rsatilgan saytlar yordamida vazifa shartlarini bajarish lozim. Rasmi tasvirga yuzlanamiz: o‘ng tomonda 3 nafar falsafashunos: Zenon, Konfutsiy va Bentam, xo‘randalar qatorida falsafa fakulteti o‘quvchilari ham joylashgan. Tasvirlarda olimlarning falsafiy qarashlari aks atgan masalalar matni berilib, o‘ng tomonida yechim topishda foydalanish uchun tarmoqdan giperilova qayd etilgan. 1-ssenariy ilovalarida: “Men boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishim kerak?”, “O‘zimizni qanday tutishimiz lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyalalar qayerdan chiqdi?”, “Odamlar har doim bir narsalar uchun tortishadi” kabi so‘roqlar ustida minglab yillar bo‘yi o‘ylanib kelgan, - degan fikrlar qayd etilgan. Har bir falsafashunos rasmining ustiga bosilsa, sahifa ochilib, ular haqida qisqacha tarixiy axborot va g‘oyalari mavjud bo‘lgan manbalar aks etadi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi falsafa ilmi haqida fuzalolarning nominigina bilishi mumkin, ammo ularning hayoti, qarashlari va g‘oyalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lmaydi yoki o‘qish vaqtida qunt bilan yondashmaydi. Shuning uchun tasvirlangan ilovalarda berilgan manbalarning qadimgi zamonga tegishli bo‘lishi va hattoki ayrim qarashlar juda eskirib ketganligi bois ham e’tiborni jalg etishi murakkablik darajasida taqdim etilishi kerak. Tasvirli ma’lumot bo‘yicha topshiriq: “O‘zing uchun xohlamaganingni boshqalarga ham ravo ko‘rma” nomli Konfutsiy ta’limotiga oid matn qayd etilgan sayt dan: “Konfutsiy b.z.q.551-479 yillar oralig‘ida yashagan xitoy faylasufi. U uch yoshga to‘lganda otasi vafot etgan, shu sababli onasi bilan birga kambag‘allikni boshidan kechirib, voyga yetadi. Bu Xitoydagي qirg‘inbarot suronli va urush zamoni edi. Konfutsiy atrofidagi odamlarning qiynalayotganini ko‘rib, buni to‘xtatgisi keldi. U mavjud dunyoning tinchligi va rivojlanishini tiladi. Konfutsiy jamiyatni o‘zgartirish uchun har kim o‘zining yakka tartibini o‘zgartirishi lozim deb hisoblaydi. U bu ayniqsa, xulq-atvori oddiy odamlar hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan mulk egalariga tegishli deb hisobladi. Bizning asosiy maqsadimiz atrofimizdagi odamlar bilan kelishib yashash bo‘lishi lozim. Konfutsiyga mos kelishuvchanlikga erishishning ahamiyatli usullaridan biri “Ren”

bo‘lib hisoblanadi, uni tarjima qilganda ma’nosи “mehribonlik” degani, bir odamning ikkinchi odamga mehribonlik ko‘rsatishini bildiradi”. 1-So‘roq: “Falsafaviy kafe” saytining sahifasidan “Konfutsiy” ilovasini bosasiz va aks etgan “Ren” so‘zi orqali Konfutsiy nimani yetkazmoqchi bo‘lganligini topishingiz kerak.

A. Tinchlik va rivojlanish. B. Suronli va urush zamonida yashagan. C. Mulk egalarining xulq-atvori. D. Odamlarga bo‘lgan mehribonlik. E. Kelishuvchanlik bilan hayot kechirish. To‘g‘ri javob: D. 2-so‘roq: 2-ssenariy ekranda tasvirlangan komiks Zenon ilmlarini quyidagicha “Tortning ta’mini ko‘ring”, “Alomat!”, “Nima qilsam ekan?”, “Voy, yo‘q, o‘tgan safar menda shunday odam chidashi qiyin bo‘lgan shish paydo bo‘luvdi” kabi ilovalarda berilgan so‘zlardan faylasufning g‘oyasini aniqlash.

A. Biz baxtli hayot kechirishimiz uchun boshqalar bilan ham hisoblashishimiz lozim. B. Biz o‘zimizning tashqi kelbatimizni kutishimiz kerak. C. Biz xohishimizning o‘zimizni bo‘ysundirishimizga yo‘l bermasligimiz lozim. D. Biz o‘tgan narsalarni o‘zgartirishga harakat qilmasligimiz kerak. To‘g‘ri javob: C. 3-so‘roq: Berilgan saytdan matnga xos vaqt shkalasini topib, 3ta faylasufning (Zenon, Bentam, Konfutsiy) har birining qaysi vatda dunyoga kelganini bilish uchun veb-saytdagi axborotdan foydalanib, kengaytmali faylni shakllantirish kerak.

To‘g‘ri javob: Barcha faylasufshunoslarga tegishli to‘g‘ri sanalarni tanlaydi.

A. Konfutsiy: b.z.q. 551-479 B. Zenon: b.z.q. 400-200 C. Bentam: b.z. 1600-1800.4 Shu kabi elektron shakldagi amaliy mashqlarni ham tahliliy izohlashlar orqali o‘rgatish asnosida Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish maqsadida o‘qitishning innovasion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash masalalariga ijobiy yondashish – davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari
2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).
3. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.
4. <http://www.tdi.uz/uzTa'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi>
5. <http://markaz.tdi.uz/> – Ta’lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi